FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.FM.05.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

XORILOV MAXMUD ABDUMALIKOVICH

BOSHQARUVLAR NOSTATSIONAR CHEGARALANISHLI DIFFERENSIAL O‘YINLAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2023

UDK: 517.977.5/.978.4

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.FM.05.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

XORILOV MAXMUD ABDUMALIKOVICH

BOSHQARUVLAR NOSTATSIONAR CHEGARALANISHLI DIFFERENSIAL O‘YINLAR

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2023

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/FM194 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (резюме)) Ilmiy kengash veb-saytida (www.fdu.uz) va «Ziyonet» ta'lim axborat tarmog'ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Samatov Baxrom Tadjiaxmatovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Mamadaliyev Numanjon** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Ibaydullayev To'lanboy Tursunboyevich fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.FM.05.04 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «11» 01 soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150100, Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi, 19 uy. Tel.: (+99873) 244-44-02, faks: (+99873) 244-44-93, e-mail: fardu_info@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (322 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi, 19 uy. Tel.: (+99873) 244-44-94).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «27» 12 kuni tarqatildi.
(2023 yil «27» 12 dagi 5 raqamli reestr bayonnomasi).

A.K.Urinov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor

I.U.Xaydarov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.n., dotsent

E.T.Karimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan koʻp sonli ilmiy-amaliy tadqiqotlar natijasida yuzaga keladigan koʻplab amaliy va nazariy muammolarni hal qilishda vaqt, resurs, xarajat, sifat va imkoniyatlarni optimallashtirish masalalari yetakchi oʻrinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosidagi bu kabi masalalar boshqaruv jarayonlarining matematik modellarini qurish va masalalarning optimal yechimlarini aniqlanishni taqozo etadi. Shu jihatdan differensial oʻyinlar nazariyasining asosiy obyekti hisoblangan qarama-qarshi boshqaruvli jarayonlarni tadqiq qilish, bu boʻyicha boshqaruvlari nostatsionar chegaralanishlarga ega boʻlgan quvish-qochish masalalari uchun yangi yetarli shartlar mavjudligini aniqlash hamda qaralayotgan obyektlarning yetishish toʻplamini tavsiflash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda boshqaruvlari nostatsionar chegaralanishli differensial oʻyin masalalarini tadqiq qilishga yoʻnaltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada differensial oʻyinlarning klassik masalalari natijasining samaradorligini oshirish uchun boshqaruvlari turli koʻrinishdagi chegaralanishlarga ega koʻp oʻyinchili differensial oʻyin masalalarini oʻrganish, differensial oʻyinlarning boshqaruvlari nostatsionar yoki turli koʻrinishdagi chegaralanishlarga ega boʻlgan quvish-qochish masalalari uchun optimal strategiyalarni qurish, yangi yetarli shartlarni topish, oʻyinchilarning yetishish toʻplamini tavsiflash shu bilan birga Ayzeksning “Qutulish chizigʻi” oʻyinini hal etishga alohida eʼtibor berilmoqda.

Respublikamizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tatbiqlariga ega boʻlgan dolzarb yoʻnalishlariga eʼtibor berish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Jumladan, “algebra va uning tatbiqlari, differensial tenglamalar va uning tatbiqlari, chiziqsiz tizimlar, dinamik sistemalar va ularning tatbiqlarini matematik modellashtirish, stoxastik tahlil, tibbiy-biologik informatika, hisoblash matematikasi” kabi ustuvor yoʻnalishlar boʻyicha muhim vazifalar belgilab berilgan[1]. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, differensial tenglamalar, dinamik sistemalar va differensial oʻyinlar nazariyalarini rivojlantirish maqsadida differensial oʻyinlarning boshqaruvlari nostatsionar yoki turli koʻrinishdagi chegaralanishlarga ega boʻlgan quvish-qochish masalalari uchun optimal strategiyalarni qurish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning Taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmonlari, 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387-son “Matematika taʼlimi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash, shuningdek Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi

[1] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi №PQ-4387 “Matematika taʼlimi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori.

Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustivor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. “Differensial o‘yin” tushunchasi XX asrning 50-yillar boshlarida Amerikalik matematik R.Ayzeks tomonidan qo‘llanilgan. 1965 yilda R.Ayzeksning izlanishlari monografiya shaklida nashr etilgan. Bu monografiya Gamilton-Yakobi nazariyasidan kelib chiqadigan evristik mulohazalar va ko‘plab misollardan iborat bo‘lib, umumiy nazariyani o‘z ichiga olmagan. O‘sha yillarda L.S.Pontryagin va uning shogirdlari havo hujumida samolyotni boshqarish vazifalarini soddalashtirishdan kelib chiqqan holda boshqariladigan jarayonlarning matematik nazariyasini yaratdilar. Shuni ta’kidlash kerakki, O‘zbekistonda ham differensial o‘yinlar nazariyasi bo‘yicha ilmiy maktab shakllantirilgan bo‘lib, unga N.Yu.Satimov asos solgan va hozirda A.A.Azamov rahbarlik qilib kelmoqda.

L.S.Pontryaginning birinchi to‘g‘ri usuli M.S.Nikolskiy tomonidan integral cheklovlar holatiga o‘tkazilgan. Ushbu yondashuv A.Ya.Azimov, F.V.Guseynov va boshqalarning ishlarida keng rivojlantirilgan. N.N.Krasovskiyning integral cheklovlarga ega differensial o‘yinlarni yechishda ekstremal maqsadga asoslangan usuli asosida mustaxkam asosga ega usul ishlab chiqilgan. Regulyar holat uchun pozitsion yondashish usuli B.N.Pshenichniy, A.A.Chikriy, I.J.Rappoport, Yu.N.Onopchuk va boshqalarning ishlarida turli ko‘rinishdagi cheklovlar integral cheklovli o‘yinlarga o‘tkazilgan. Keyinchalik, N.Yu.Satimov, G.I.Ibragimov, B.T.Samatov va boshqalar ishlarida integral cheklovlar bilan differensial va diskret o‘yinlarida jamoaviy quvlovchilar o‘rtasida boshqarish resurslarini taqsimlash usuliga asoslanib yechishni taklif etdilar. So‘nggi yillarda A.A.Azamov va A.Sh.Kuchkarovlar tomonidan quvlovchining boshqaruvi funksiyasiga geometrik, qochuvchining boshqaruviga esa integral cheklovlar qo‘yilganda quvish, boshqaruvchanlik va chiziqli sistemalarda turg‘unlik masalalarining o‘zaro bog‘liqligi bo‘yicha tadqiqotlarga asos solingan. Differensial o‘yinlarning umumiy nazariyasida quvish-qochish masalalari bir qator o‘ziga xosliklari bilan alohida ahamiyatga ega. Bular masala qo‘yilishidagi xilma-xillik, qo‘llaniladigan usullar va natijalarning xususiyatlaridan iborat. Yetishish sohasining mahsus xossasiga asoslanib, R.Ayzeksning “Qutulish chizig‘i” masalasi oddiy harakatlar bo‘lgan holida L.A.Petrosyan tomonidan yechilgan. Bunda parallel quvish strategiyasi optimal strategiya ekanligini isbotlangan. Yuqoridagi kabi ko‘plab ilmiy ishlar bajarilganiga qaramasdan, hozirgi kunda boshqaruv funksiyalari nostatsionar chegaralanishli differensial o‘yinlarni yetarlicha o‘rganilmaganligini ta’kidlash joiz.

Shu bois boshqaruv funksiyalari nostatsionar chegaralanishli differensial oʻyinlarni oʻrganish katta ahamiyatga ega.

Mazkur dissertatsiya boshqaruv funksiyalari nostatsionar chegaralanishli differensial oʻyinlarni va R.Ayzeksning “Qutulish chizigʻi” muammosini hal qilishga bagʻishlangan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Fundamental tadqiqotlar” tarmogʻi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi boshqaruvlarga nostatsionar chegaralanishlar qoʻyilgan hollarda quvish-qochish masalalarini va R.Ayzeksning “Qutulish chizigʻi” muammosini yechishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oʻyinchilarning boshqaruvlariga chiziqli chegaralanishlar qoʻyilgan differensial oʻyinda quvish masalasi yechimga ega boʻlishining yangi yetarli shartlarini topish;

boshqaruvlarga eksponensial integral chegaralanishlar qoʻyilgan holda quvish-qochish masalalari yechimga ega boʻlishining yangi yetarli shartlarini topish;

boshqaruvlarga nostatsionar geometrik chegaralanishlar qoʻyilgan holda quvish-qochish masalalari yechimga ega boʻlishining yangi yetarli shartlarini aniqlash;

boshqaruvlari nostatsionar geometrik chegaralanishli quvish-qochish masalalari uchun R.Ayzeksning “Qutulish chizigʻi” masalasini toʻliq hal etish.

Tadqiqotning obyekti. Optimal boshqarish nazariyasi, differensial tenglamalar nazariyasi, differensial oʻyinlar nazariyasi.

Tadqiqotning predmeti. Boshqaruv funksiyalari geometrik, nostatsionar geometrik, chiziqli va nostatsionar integral chegaralanishlarga ega boʻlgan quvish-qochish masalalari.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada quvish masalalarini yechish uchun oʻyinchilarning parallel yaqinlashish usullari, qochish masalalarini yechish uchun esa yoʻnalish boʻyicha qochish usullaridan foydalanilgan. Shu bilan birgalikda, funksional tahlil, optimal boshqaruv nazariyasi va koʻp qiymatli akslantirishlar nazariyasi keng qoʻllanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

boshqaruv funksiyalari chiziqli chegaralanishli differensial oʻyinda quvishni tugallash uchun yangi yetarli shartlar quvlovchilar uchun parallel yaqinlashish metodi yordamida olingan hamda oʻyinchilar yetishish sohasining monotonligi toʻplamning tirgak funksiyasi yordamida isbotlangan;

boshqaruv funksiyalari eksponensial integral chegaralanishga ega holda quvish-qochish differensial oʻyin masalalari quvlovchi uchun parallel yaqinlashish metodi va qochuvchi uchun esa yoʻnalish boʻyicha qochish metodi yordamida yechilgan;

boshqaruv funksiyalari nostatsionar geometrik chegaralanishli differensial oʻyinda quvish-qochish masalalarini yechish uchun yangi yetarli shartlar quvlovchi uchun parallel yaqinlashish metodi va qochuvchi uchun esa yo‘nalish bo‘yicha qochish metodi yordamida aniqlangan;

boshqaruv funksiyalari nostatsionar geometrik chegaralanishli differensial o‘yinda o‘yinchilar yetishish sohasining yangi monotonlik shartlari topilgan va o‘yinchilar yetishish sohasining monotonlik xossasi yordamida Ayzeksning “Qutulish chizig‘i” masalasi to‘liq yechilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

differensial o‘yinlar nazariyasi asoslarining hayotiy jarayonlar bilan o‘zaro mutanosibligi nuqtai-nazaridan, qarama-qarshi boshqaruvli jarayonlarga mos masalalarning matematik modellari bo‘lgan quvish-qochish masalalari yechilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ishda differensial tenglamalar nazariyasi, funksional tahlil, optimal boshqaruv nazariyasi hamda differensial o‘yinlar nazariyasining quvish-qochish masalalari haqidagi teoremalaridan foydalanilgan. Olingan natijalar qat’iy matematik mulohazalarga asoslanib isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati boshqaruv va differensial o‘yinlar nazariyasini rivojlantirish hamda ularning tatbiqlariga doir masalalarning samarali yechish usullarini aniqlashda foydalanish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dinamik o‘yinlarning matematik modellaridagi resurs boshqaruvlari uchun optimal taqsimotning berilishi, hamda ularning sonli algoritmlarini qurish orqali texnika, tibbiyot va iqtisodiyotga tatbiq etish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Boshqaruvlari nostatsionar chegaralanishlarga ega differensial o‘yinlar bo‘yicha olingan natijalar asosida:

boshqaruvlari nostatsionar chegaralanishli quvish-qochish masalalar va Ayzeksning “Qutulish chizig‘i” masalasi yechimining mavjudligi bo‘yicha olingan natijalar OT-F4-33 raqamli “Differensial tenglamalar bilan tavsiflanuvchi ziddiyatli holatlarni boshqarishning yangi usullarini yaratish va ularni sonli amalga oshirish” mavzusidagi fundamental loyihada boshqaruvlari nostatsionar chegaralanishli qarama-qarshi boshqaruvli dinamik sistemalarda foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2023-yil 9-iyundagi 04/11-3587-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, nostatsionar chegaralanishli dinamik sistemalarda ziddiyatli boshqaruv (dinamik o‘yin) masalalarining umumlashgan yechimlarini aniqlash imkonini bergan;

boshqaruvlari chiziqli chegaralanishli differensial o‘yin masalasi yechimining mavjudligi va optimalligi bo‘yicha olingan natijalar 374874-2015 raqamli “Fazaviy o‘tishlar va tahliliy hodisalar masalalari. Ularning tez o‘tish tenglamalari va asimptotikalarining matematik xususiyatlari” mavzusidagi xorijiy grant loyihasida oddiy differensial tenglamalar uchun analogik masalalarni yechishda foydalanilgan (O‘sh davlat universitetining 2023-yil 27-iyundagi 838-sonli ma’lumotnomasi, Qirg‘iziston Respublikasi). Natijada, yangi nolokal umumlashgan spektral masalalarning yechimini qurish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 18 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 9 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya tadqiqoti mavzusi bo‘yicha jami 24 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestasiya komissiyasining falsafa doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta, jumladan 2 tasi xorijiy va 4 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 93 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlarning tahlili berilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti ko‘rsatilgan, tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi ochib berilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ko‘rsatilgan, tadqiqot natijalarining tatbiqi, shuningdek nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Birinchi bob “**Boshqaruvlari** $LG-$**chegaralanishlarga ega differensial o‘yinlar**” deb nomlangan bo‘lib, ushbu bob boshqaruvlari chiziqli va geometrik chegaralanishlarga ega bir nechta quvlovchi va bitta qochuvchili quvish differensial o‘yinini tadqiq qilishga bag‘ishlangan.

$\mathbb{R}^n$ fazoda chekli sondagi P_i, $i=1,2,...,m$ quvlovchilar va E qochuvchi harakatlanayotgan bo‘lib, x_i va y mos ravishda quvlovchilar va qochuvchining radius vektorlari bo‘lsin. Agar u_i va v ularning tezlik vektorlari bo‘lsa, u holda quvlovchilar va qochuvchining harakatlari mos ravishda quyidagi tenglamalar bilan berilgan differensial o‘yinni ko‘rib chiqamiz:

$$P_i: \ \dot{x}_i = u_i, \quad x_i(0) = x_{i0}, \tag{1}$$

$$E: \ \dot{y} = v, \quad y(0) = y_0, \tag{2}$$

bu yerda $x_i, y, u_i, v \in \mathbb{R}^n$, $n \geq 2$, va x_{i0}, $i=1,2,...,m$, vektorlar P_i obyektlarning boshlang‘ich holatlari va y_0 esa E obyektning boshlang‘ich holati. Har bir P_i quvlovchining u_i boshqaruv parametrlari vaqt bo‘yicha $u_i(\cdot):[0,\infty) \to \mathbb{R}^n$ o‘lchovli funksiyalar bo‘lishi kerak va har bir $u_i(\cdot)$ funksiya quyidagi integral ko‘rinishdagi chegaralanishni qanoatlantirishini talab qilamiz:

$$\int_0^t |u_i(s)|^2 \, ds \leq L_i(t) \ \text{deyarli barcha} \ t \geq 0, \tag{3}$$

bu yerda $L_i(t) = k_i t + \rho_{i0}$, $i=1,2,...,m$, funksiya resursning har bir t vaqtdagi chiziqli o‘zgarishi, k_i, ρ_{i0} lar manfiy bo‘lmagan parametrik sonlar. (3) ko‘rinishdagi chegaralanishni chiziqli chegaralanish yoki qisqacha, L_i – chegaralanish deb ataymiz va $\mathbb{U}_L^i$ orqali P_i quvlovchilarning joiz boshqaruvlari, ya’ni (3) tengsizlikni qanoatlantiruvchi barcha o‘lchovli funksiyalar sinfini belgilaymiz.

Fizik nuqtai nazaridan, (3) ning o‘ng tomoni $t \geq 0$ vaqtga bog‘liq holda berilgan resursning chiziqli o‘zgarishiga mos keladi. Shu sababli, $L_i(t)$ chiziqli funksiyani berilgan P_i quvlovchilar resurslarining ayni vaqtdagi o‘zgarishi deb nomlash mumkin. Ravshanki, quvlovchilarning boshlang‘ich resurslari $k_i > 0$ bo‘lsa ortadi, $k_i < 0$ bo‘lsa kamayadi va $k_i = 0$ bo‘lsa o‘zgarmaydi. Oxirgi holatda (3) ni integral chegaralanish deyiladi. Agar $\rho_{i0} = 0$ va $k_i > 0$ bo‘lsa, u holda (3) ni geometrik chegaralanish deyiladi.

Yuqoridagi kabi, E qochuvchining v boshqaruvi ham vaqt bo‘yicha $v(\cdot):[0, +\infty) \to \mathbb{R}^n$ o‘lchovli funksiya sifatida tanlanadi va

$$|v(t)| \leq \beta \text{ deyarli barcha } t \geq 0, \tag{4}$$

geometrik chegaralanishni (qisqacha, G-chegaralanish) qanoatlantirishini talab qilinadi, bu yerda β manfiy bo‘lmagan parametrik son bo‘lib, qochuvchining maksimal tezligining qiymatini ifodalaydi. Biz $\mathbb{V}_G$ orqali (4) tengsizlikni qanoatlantiruvchi qochuvchining barcha $v(\cdot)$ joiz boshqaruvlari sinfini belgilaymiz.

(1)–(4) differensial o‘yinni L_iG – o‘yin deb ataylik.

L_iG – o‘yinda P_i, $i = 1, 2, ..., m$ quvlovchilarning asosiy maqsadi E qochuvchini tutishdir, ya’ni chekli vaqtda biror $i = 1, 2, ..., m$ uchun $x_i(t) = y(t)$ tenglikka erishish, bu yerda $x_i(t)$, $i = 1, 2, ..., m$ va $y(t)$ vektor funksiyalar L_iG – o‘yin davomida hosil bo‘ladigan trayektoriyalar. E qochuvchi esa quvlovchi bilan to‘qnashishning oldini olishga harakat qiladi va agar buning iloji bo‘lmasa, u holda to‘qnashish vaqtini imkon boricha kechiktirishga harakat qiladi.

Ushbu bobda, biz asosan qochuvchi uchun $\mathbb{R}^n$ fazoning “Qutilish chizig‘i” deb nomlangan A qism to‘plami bilan berilgan holat chegaralanishlariga ega o‘yinni ko‘rib chiqamiz.

1-ta’rif. (1) va (2) ga ko‘ra, $(x_{i0}, u_i(\cdot))$, $u_i(\cdot) \in \mathbb{U}_L^i$, $i = 1, 2, ..., m$ va $(y_0, v(\cdot))$, $v(\cdot) \in \mathbb{V}_G$ juftliklar mos ravishda $x_i(t) = x_{i0} + \int_0^t u_i(s)ds$ va $y(t) = y_0 + \int_0^t v(s)ds$ yechimlarni hosil qiladi. Bu holda, $x_i(t)$, $i = 1, 2, ..., m$ ni P_i quvlovchining harakat trayektoriyasi, $y(t)$ ni esa E qochuvchining harakat trayektoriyasi deb ataymiz.

2-ta'rif. Har bir $(k_i, \rho_{i0}, u_i(\cdot))$, $u_i(\cdot) \in \mathbb{U}_L^i$, $i = 1,2,...,m$ uchlik uchun ushbu $\rho_i(t) = L_i(t) - \int_0^t |u_i(s)|^2 ds$, $\rho_i(0) = \rho_{i0}$, $t \geq 0$ skalyar kattalik P_i quvlovchining har bir t momentdagi qoldiq resursi deyiladi.

3-ta'rif. Ushbu $\mathbf{u}_{L_iG}^i : \mathbb{V}_G \to \mathbb{U}_L^i$, $i = 1,2,...,m$ akslantirish P_i quvlovchining strategiyasi deyiladi, agar: 1^o. (Joizlik) Ixtiyoriy $v(\cdot) \in \mathbb{V}_G$ boshqaruv funksiya uchun $u_i(\cdot) = \mathbf{u}_{L_iG}^i[v(\cdot)] \in \mathbb{U}_L^i$ tegishlilik bajarilsa; 2^o. (Volterra) Agar ixtiyoriy $v_1(\cdot), v_2(\cdot) \in \mathbb{V}_G$ boshqaruv funksiyalar va har bir $t \in [0, \infty)$ uchun deyarli barcha $[0,t]$ kesmada $v_1(s) = v_2(s)$ tenglik deyarli barcha $[0,t]$ kesmada $u_{i1}(s) = u_{i2}(s)$ tenglikning bajarilishini ifodalasa, bu yerda $u_{ij}(\cdot) = \mathbf{u}_{L_iG}^{ij}[v_j(\cdot)] \in \mathbb{U}_L^i$, $j = 1, 2$.

4-ta'rif. Agar har bir $v(\cdot) \in \mathbb{V}_G$ uchun biror $t_i^* \in \left[0, T_{L_iG}^i\right]$ payt mavjud bo'lib, $x(t_i^*) = y(t_i^*)$ tenglik hosil bo'lsa, u holda $L_iG -$o'yinda $\mathbf{u}_{L_iG}^i(v)$, $i = 1,2,...,m$ strategiya $\left[0, T_{L_iG}^i\right]$ vaqt oralig'ida P_i quvlovchilar uchun yutuqli deyiladi, bu yerda $T_{L_iG}^i$ kafolatlangan quvish vaqti deyiladi.

5-ta'rif. Faraz qilaylik, $y_0 \notin \bar{A} \subset \mathbb{R}^n$ bo'lsin. Agar quyidagi shartlar bajarilsa: a) biror $t_i^* \in \left[0, T_{L_iG}^i\right]$ vaqt mavjud bo'lib, $x(t_i^*) = y(t_i^*)$ o'rinli bo'lsa; b) $y_t(\cdot) = \left\{y(s): 0 \leq s \leq t_i^*\right\} \notin \bar{A}$ bo'lsa, u holda "Qutilish chizig'i" ga ega $L_iG -$o'yinda $\left[0, T_{L_iG}^i\right]$ vaqt oralig'ida $\mathbf{u}_{L_iG}^i(v)$, $i = 1,2,...,m$ strategiya P_i quvlovchilar uchun yutuqli deyiladi.

$x_{i0} \neq y_0$ bo'lsin va $v(t)$, $t \geq 0$, $v(t) \in \mathbb{V}_G$ boshqaruvning qiymati berilgan bo'lsin. Faraz qilaylik, (μ_{i0}, k_i, β) uchlik $L_iG -$o'yining parametrik holati bo'lsin va uni p_i bilan belgilaylik. Bunday p_i holatlarning bo'sh bo'lmagan va o'zaro sodda bog'langan $\mathbf{P}_{L_iG}^i = \mathbf{P}_1^i \cup \mathbf{P}_2^i \cup \mathbf{P}_3^i$ to'plamini topamiz, bu yerda

$$\mathbf{P}_1^i = \left\{p_i : \mu_{i0} \geq 0, k_i > \beta^2, \beta \geq 0\right\}, \ \mathbf{P}_2^i = \left\{p_i : \mu_{i0} > 2\beta, \ k_i = \beta^2, \ \beta \geq 0\right\},$$

$$\mathbf{P}_3^i = \left\{p_i : \mu_{i0} \geq 2\left(\beta + \sqrt{\beta^2 - k_i}\right), k_i < \beta^2, \beta \geq 0\right\}$$

va $\mathbf{P}_1^i$, $\mathbf{P}_2^i$, $\mathbf{P}_3^i$ o'zaro kesishmaydigan to'plamlar.

6-ta'rif. $L_iG -$o'yinda $\mathbf{u}_{L_iG}^i(v) = v - \lambda_{L_iG}^i(v)\xi_{i0}$ funksiyani P_i quvlovchining parallel quvish strategiyasi (qichqacha, $\Pi_{L_iG}^i$ – strategiya) deb ataymiz, bu yerda

$$\lambda_{L_iG}^i(v) = \mu_{i0}/2 + \langle v, \xi_{i0}\rangle + \sqrt{\left(\mu_{i0}/2 + \langle v, \xi_{i0}\rangle\right)^2 + k_i - |v|^2},$$

$$\xi_{i0} = z_{i0}/|z_{i0}|, \quad z_{i0} = x_{i0} - y_0, \quad \mu_{i0} = \rho_{i0}/|z_{i0}|.$$

Faraz qilaylik, E qochuvchi t, $t \ge 0$ vaqt momentida y holatdan v, $|v| \le \beta$ o‘zgarmas boshqaruv yordamida harakatlansin. P_i quvlovchilar esa ρ_i, $\rho_i > 0$ resursga asosan x_i holatdan boshlab $\Pi^i_{L_iG}$ – strategiyani qo‘llasin. U holda agar w nuqta P_i quvlovchilar va E qochuvchi biror $T > 0$ vaqtda to‘qnashishi kerak bo‘lgan nuqta bo‘lsa, barcha shunday w nuqtalar to‘plamini quyidagi munosabatlar yordamida beriladi:

$$|w - x_i| = T|u_i(v)|, \quad |w - y| = T|v|, \quad T|u_i(v)|^2 = k_i T + \rho_i,$$

va bu tengliklardan quyidagini topamiz:

$$W^i_{L_iG}(x_i, y, \rho_i) = \left\{ w : |w - x_i|^2 \ge (k_i / \beta^2)|w - y|^2 + (\rho_i / \beta)|w - y| \right\}.$$

1-teorema. L_iG–o‘yinda $p_i \in \mathbf{P}^i_{L_iG}$ o‘rinli bo‘lsin. U holda ixtiyoriy $t_1, t_2 \in [0, t_i^*]$, $0 \le t_1 \le t_2$ lar uchun $W^i_{L_iG}(t_2) \subset W^i_{L_iG}(t_1)$ munosabat o‘rinli bo‘ladi.

2-teorema. Agar biror $i = 1, 2, ..., m$ uchun $p_i \in \mathbf{P}^i_{L_iG}$ bo‘lsa, u holda $[0, T_{L_iG}]$ da $y(t) \in W$ bajariladi, bu yerda

$$W = \bigcap_{i=1}^{m} W^i_{L_iG}(0), \ T_{L_iG} = d / \beta, \ d = \max\{|w_1 - w_2| : w_1, w_2 \in W\}.$$

3-teorema. Agar $W \cap A = \varnothing$ bo‘lsa, u holda, “Qutilish chizig‘i”ga ega L_iG – o‘yinda $\Pi^i_{L_iG}$ – strategiya $[0, T_{L_iG}]$ da P_i, $i = \overline{1, m}$ quvlovchilar uchun yutuqli bo‘ladi.

Ikkinchi bob “**Boshqaruvlari nostatsionar integral chegaralanishli differensial o‘yinlar**” deb nomlangan bo‘lib, ushbu bob boshqaruvlari nostatsionar integral chegaralanishlarga ega sodda harakatli differensial o‘yinlarni yechishga bag‘ishlangan.

$\mathbb{R}^n$ fazoda quvlovchi va qochuvchining harakatlari mos ravishda

$$P: \quad \dot{x} = u, \quad x(0) = x_0, \tag{5}$$

$$E: \quad \dot{y} = v, \quad y(0) = y_0 \tag{6}$$

tenglamalar bilan berilgan bo‘lsin, bu yerda x_0 va y_0 nuqtalar $x_0 \ne y_0$ shart asosida quvlovchi va qochuvchining boshlang‘ich vaziyatlarini bildiradi.

$\mathbb{U}^1_{I_k}$ va $\mathbb{V}^1_{I_k}$ orqali mos ravishda quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi barcha $u(\cdot)$ va $v(\cdot)$ o‘lchovli funksiyalar sinflarini belgilaymiz:

$$\int_0^t |u(s)|^2 \, ds \le \frac{\rho_1^2}{2k}\left(1 - e^{-2kt}\right), \ \rho_1 > 0, \ k > 0, \ t \ge 0, \tag{7}$$

$$\int_0^t |v(s)|^2 \, ds \le \frac{\sigma_1^2}{2k}\left(1 - e^{-2kt}\right), \ \sigma_1 > 0, \ k > 0, \ t \ge 0. \tag{8}$$

(7) yoki (8) ko‘rinishdagi chegaralanishni noldan eksponensial chegaralanish yoki qisqacha, I_k^1-chegaralanish deb ataymiz.

(5)–(8) differensial o‘yinni I_k^1–o‘yin deb ataymiz. Bundan tashqari, ikkinchi bobda (7) va (8) chegaralanishlarning umumlashmasi sifatida quvlovchi va qochuvchining boshqaruvlari $u(\cdot)$ va $v(\cdot)$ o‘lchovli funksiyalar sifatida tanlanadigan va mos ravishda quyidagi integral chegaralanishlar (qisqacha, I_k^2- chegaralanishlar) ni qanoatlantiradigan holdagi (5) va (6) sodda harakatlarga ega differensial o‘yinni qaraymiz:

$$\int_0^t |u(s)|^2\, ds \le \frac{\rho_1^2}{2k}(1-e^{-2kt})+\rho_0^2,\ \ \rho_1>0,\ \rho_0>0,\ k>0,\ t\ge 0, \tag{9}$$

$$\int_0^t |v(s)|^2\, ds \le \frac{\sigma_1^2}{2k}(1-e^{-2kt})+\sigma_0^2,\ \ \sigma_1>0,\ \sigma_0>0,\ k>0,\ t\ge 0 \tag{10}$$

va (9) yoki (10) ko‘rinishidagi integral chegaralanishni boshlang‘ich resursga ega eksponensial chegaralanish deb ataymiz. Bunda ρ_0^2 va σ_0^2 mos ravishda P va E obyektlarning boshlang‘ich resurslarini ifodalaydi. $\mathbb{U}_{I_k}^2$ va $\mathbb{V}_{I_k}^2$ orqali (9) va (10) chegaralanishlarni qanoatlantiruvchi barcha $u(\cdot)$ va $v(\cdot)$ o‘lchovli funksiyalar sinflarini belgilaymiz.

(5), (6), (9), (10) differensial o‘yinni I_k^2-o‘yin deb ataymiz.

7-ta’rif. I_k^1-quvish o‘yinida (I_k^2-quvish o‘yinida) Borel ma’nosida o‘lchovli $\mathbf{u}_{I_k^1}:\mathbb{R}_+\times\mathbb{V}_{I_k}^1\to\mathbb{U}_{I_k}^1$ $\left(\mathbf{u}_{I_k^2}:\mathbb{R}_+\times\mathbb{V}_{I_k}^2\to\mathbb{U}_{I_k}^2\right)$ funksiyaga quvlovchining strategiyasi deyiladi.

8-ta’rif. Agar ixtiyoriy $v(\cdot)\in\mathbb{V}_{I_k}^1$ $\left(v(\cdot)\in\mathbb{V}_{I_k}^2\right)$ boshqaruv uchun biror $t^*\in\left[0,\,T\left(\mathbf{u}_{I_k^1}\right)\right]$ $\left(t^*\in\left[0,\,T\left(\mathbf{u}_{I_k^2}\right)\right]\right)$ da $x(t^*)=y(t^*)$ bajarilsa, u holda $\mathbf{u}_{I_k^1}=\mathbf{u}_{I_k^1}(t,v)$ $\left(\mathbf{u}_{I_k^2}=\mathbf{u}_{I_k^2}(t,v)\right)$ strategiya $T\left(\mathbf{u}_{I_k^1}\right)$ $\left(T\left(\mathbf{u}_{I_k^2}\right)\right)$ chekli vaqtda quvishni yakunlashni kafolatlaydi deb aytamiz, bu yerda $x(t)$ va $y(t)$, $t\ge 0$ lar mos ravishda (5) va (6) masalalarning yechimlari.

9-ta’rif. $\rho\ge\sigma$ uchun $\mathbf{u}_{I_k^1}(t,v)=v-\lambda_{I_k^1}(t,v)\xi_0$ funksiyani I_k^1-quvish o‘yinida quvlovchining $\Pi_{I_k^1}$-strategiyasi deb ataymiz, bu yerda

$$\lambda_{I_k^1}(t,v)=\langle v,\xi_0\rangle+\sqrt{\langle v,\xi_0\rangle^2+\delta_1 e^{-2kt}},\ \ \delta_1=\rho_1^2-\sigma_1^2,\ \ \xi_0=z_0/|z_0|$$

va $\langle v,\xi_0\rangle-$ esa $\mathbb{R}^n$ fazodagi v va ξ_0 vektorlarning skalyar ko‘paytmasini ifodalaydi.

Ta’kidlash kerakki, $t\ge 0$ da $\left|\mathbf{u}_{I_k^1}(t,v)\right|^2=|v|^2+\delta_1 e^{-2kt}$ o‘rinli bo‘ladi.

10-ta’rif. Agar ushbu

$$\sqrt{\Phi_P(t)+\Psi_P(t)}-\sqrt{\Phi_P(t)}=|z_0| \tag{11}$$

tenglamaning t bo‘yicha kamida bitta musbat ildizi mavjud bo‘lsa, u holda (11) tenglamaning eng kichik musbat ildizini kafolatlangan quvish vaqti deb ataymiz va uni $T_{I_k^1}$ orqali belgilaymiz, bu yerda

$$\Phi_P(t) = t\sigma_1^2(1-e^{-2kt})/2k, \quad \Psi_P(t) = (\rho_1^2 - \sigma_1^2)(1-e^{-kt})^2/k^2.$$

4-teorema. Agar I_k^1–quvish o‘yinida $\rho_1 > \sigma_1$ va (11) tenglamaning biror musbat ildizi mavjud bo‘lsa, u holda $\Pi_{I_k^1}$-strategiya $\left[0, T_{I_k^1}\right]$ vaqt oralig‘ida quvishni yakunlashni kafolatlaydi.

11-ta’rif. I_k^1–qochish o‘yinida $\sigma_1 \geq \rho_1$ bo‘lsin. U holda qochuvchining $E_{I_k^1}$-strategiyasi deb,

$$v_{I_k^1}(t, u_\varepsilon(t)) = \begin{cases} 0, & \text{if} \quad 0 \leq t < \varepsilon, \\ -\sqrt{|u(t-\varepsilon)|^2 + \theta e^{-2k(t-\varepsilon)}}\,\xi_0, & \text{if} \quad t \geq \varepsilon \end{cases}$$

funksiyaga aytamiz, bu yerda

$$u_\varepsilon(t) = \begin{cases} 0, & \text{if} \quad 0 \leq t < \varepsilon, \\ u(t-\varepsilon), & \text{if} \quad t \geq \varepsilon, \end{cases} \quad u_\varepsilon(t) \in \mathbb{R}^n, \quad \theta = \sigma_1^2 - \rho_1^2, \quad \xi_0 = z_0/|z_0|.$$

12-ta’rif. Ixtiyoriy $u(\cdot) \in \mathbb{U}_{I_k}^1$ boshqaruv uchun $E_{I_k^1}$- strategiya qochuvchi uchun yutuqli deyiladi agar:

a) $\dot{z} = u(t) - v_{I_k^1}(t, u_\varepsilon(t)),\ z(0) = z_0$ Koshi masalasining $z(t)$ yechimi noldan farqli bo‘lsa, ya’ni ixtiyoriy t, $t \geq 0$ lar uchun $z(t) \neq 0$ bo‘lsa;

b) ixtiyoriy t, $t \geq 0$ lar uchun $v_{I_k^1}(t, u_\varepsilon(\cdot)) \in \mathbb{V}_{I_k}^1$ tegishlilik o‘rinli bo‘lsa.

5-teorema. Agar I_k^1–o‘yinda $\rho_1 \leq \sigma_1,\ k > 0$ va $0 < \varepsilon \leq \dfrac{2k|z_0|^2}{\rho_1^2}$ bo‘lsa, u holda $E_{I_k^1}$-strategiya qochuvchi uchun yutuqli bo‘ladi hamda P va E obyektlar orasidagi masofa uchun quyidagi baholash o‘rinli bo‘ladi:

$$|z(t)| > \begin{cases} 0, & \text{if} \quad 0 \leq t < \varepsilon, \\ \sqrt{\Phi_E(t-\varepsilon) + \Psi_E(t-\varepsilon)} - \sqrt{\Phi_E(t-\varepsilon)}, & \text{if} \quad t \geq \varepsilon, \end{cases}$$

bu yerda $\Phi_E(t) = t\rho_1^2(1-e^{-2kt})/(2k), \quad \Psi_E(t) = (\sigma_1^2 - \rho_1^2)q(1-e^{-kt})^2/k^2.$

13-ta’rif. I_k^2–o‘yinda quvlovchining $\Pi_{I_k^2}$-strategiyasi deb, $\mathbf{u}_{I_k^2}(t, v) = v - \lambda_{I_k^2}(t, v)\xi_0$ funksiyaga aytamiz, bu yerda

$$\lambda_{I_k^2}(t, v) = \mu_0 + \langle v, \xi_0 \rangle + \sqrt{(\mu_0 + \langle v, \xi_0 \rangle)^2 + \delta_1 e^{-2kt}}, \ \mu_0 = \delta_0/2|z_0|, \ \delta_0 = \rho_0^2 - \sigma_0^2,$$

$\delta_1 = \rho_1^2 - \sigma_1^2$, $\xi_0 = z_0/|z_0|$, $z_0 = x_0 - y_0$ va $\langle v, \xi_0 \rangle$–ifoda $\mathbb{R}^n$ fazodagi v va ξ_0 vektorlarning skalyar ko‘paytmasini bildiradi.

14-ta’rif. Agar, ushbu

$$\sqrt{\Phi(t) + \Psi(t)} - \sqrt{\Phi(t)} = |z_0| \tag{12}$$

tenglamaning t bo‘yicha eng kamida bitta musbat ildizi mavjud bo‘lsa, u holda (12) tenglamaning birinchi musbat ildizini kafolatlangan tutish vaqti deb ataymiz va uni $T_{I_k^2}$ orqali belgilaymiz, bu yerda

$$\Phi(t) = t\left(\frac{\sigma_1^2}{2k}(1-e^{-2kt}) + \sigma_0^2\right), \quad \Psi(t) = \delta_0 t + \delta_1\left(\frac{1-e^{-kt}}{k}\right)^2.$$

6-teorema. a) $\rho_1 > \sigma_1$ bo‘lsin; b) (12) tenglama kamida bitta musbat ildizga ega bo‘lsin. U holda I_k^2 –o‘yinda $\Pi_{I_k^2}$-strategiya $\left[0, T_{I_k^2}\right]$ vaqt oralig‘ida quvishni yakunlashini kafolatlaydi.

Uchinchi bob “**Boshqaruvlari nostatsionar geometrik chegaralanishli differensial o‘yinlar**” deb nomlangan bo‘lib, mazkur bob boshqaruvlari nostatsionar geometrik chegaralanishlarga ega sodda va inersion harakatli differensial o‘yinlarda quvish-qochish va “Qutulish chizig‘i” masalalarini tadqiq qilishga bag‘ishlangan.

$\mathbb{R}^n$ fazoda quvlovchi va qochuvchi mos ravishda (5) va (6) tenglamalar bilan harakatlanadigan holda quvish-qochish masalalarini ko‘rib chiqamiz. Obyektlarning boshqaruvlari mos ravishda

$$|u(t)| \le \alpha(t) \text{ deyarli barcha } t \ge 0, \tag{13}$$

$$|v(t)| \le \beta(t) \text{ deyarli barcha } t \ge 0, \tag{14}$$

nostatsionar geometrik chegaralanishlarga (yoki qisqacha, G_t –chegaralanishlar) bo‘ysunadi, bu yerda $\alpha(t)$ va $\beta(t)$ mos ravishda quvlovchi va qochuvchining har bir ayni $t \ge 0$ paytdagi maksimal tezlik qiymatlarini ifodalovchi manfiy bo‘lmagan integrallanuvchi funksiyalar. $\mathbb{U}_G^t$ va $\mathbb{V}_G^t$ orqali mos ravishda (13) va (14) G_t – chegaralanishlarni qanoatlantiruvchi barcha $u(\cdot)$ va $v(\cdot)$ o‘lchovli funksiyalar to‘plamlarini belgilaymiz.

Ushbu bobda asosan, qochuvchi uchun “Qutilish chizig‘i” deb nomlanuvchi $M \subset \mathbb{R}^n$ yopiq qism to‘plam bilan berilgan holat chegaralanishlariga ega o‘yinni o‘rganamiz. “Qutilish chizig‘i”ga ega differensial o‘yinda P quvlovchining maqsadi E qochuvchini $\mathbb{R}^n \setminus M$ sohada tutish, ya’ni biror $t, t > 0$ vaqtda $x(t) = y(t)$ tenglikni amalga oshirish, bu yerda $x(t)$ va $y(t)$ mos ravishda (5) va (6) tenglamalarning yechimlari. E qochuvchining maqsadi esa quvlovchi tutishidan oldin M to‘plamga yetib borish yoki barcha $t \ge 0$ uchun $x(t) \ne y(t)$ tengsizlikni amalga oshirish. M to‘plam P quvlovchining harakatini cheklamasligini aytib o‘tishimiz kerak. Bundan tashqari x_0 va y_0 boshlang‘ich holatlar $x_0 \ne y_0$ va $y_0 \notin M$ shartlar bilan berilgan deb faraz qilamiz.

$B(c;r)$ markazi c nuqtada bo‘lgan r radiusli $\mathbb{R}^n$ dagi sharni ifodalasin.

$z = x - y,\ z_0 = x_0 - y_0$ belgilaymiz, u holda (5) va (6) tenglamalardan ushbu $\dot{z} = u - v,\ z(0) = z_0$ ko‘rinishdagi tenglamaga ega bo‘lamiz.

15-ta’rif. Agar ixtiyoriy $v(\cdot) \in \mathbb{V}_G^t$ boshqaruv uchun shunday $t^* \in [0, T]$ vaqt mavjud bo‘lib, bunda: 1) $x(t^*) = y(t^*)$ bo‘lsa; 2) barcha $t \in [0, t^*]$ uchun $y(t) \notin M$ bo‘lsa, u holda “Qutilish chizig‘i” o‘yinida $\mathbf{u}_{G_t}(v,t)$ strategiya chekli $[0, T]$ vaqt oralig‘ida P quvlovchi uchun yutuqli deyiladi.

16-ta'rif. $\alpha(t)\ge\beta(t)$, $t\ge 0$ lar uchun ushbu $\mathbf{u}_{G_t}(v,t)=v-\lambda_{G_t}(v,t)\xi_0$ funksiyani quvlovchining parallel quvish strategiyasi yoki Π_{G_t}-strategiya deb ataymiz, bu yerda $\lambda_{G_t}(v,t)=\langle v,\xi_0\rangle+\sqrt{\langle v,\xi_0\rangle^2+\alpha^2(t)-|v|^2}$, $\xi_0=z_0/|z_0|$ va $\langle v,\xi_0\rangle-$ifoda $\mathbb{R}^n$ fazodagi v va ξ_0 vektorlarning skalyar ko'paytmasi.

7-teorema. Barcha $t\ge 0$ uchun $\alpha(t)\ge\beta(t)$ o'rinli, T_{G_t} esa $\int_0^t(\alpha(s)-\beta(s))ds=|z_0|$ tenglamaning birinchi musbat ildizi bo'lsin. U holda G_t-o'yinda: a) Π_{G_t}-strategiya P quvlovchi uchun $\left[0,T_{G_t}\right]$ vaqt oralig'ida yutuqli bo'ladi; b) P quvlovchining ixtiyoriy boshqaruvi uchun ushbu $v^*(t)=-\beta(t)\xi_0$ strategiya E qochuvchi uchun yutuqli bo'ladi, ya'ni $\left[0,T_{G_t}\right)$ vaqt oralig'ida $|z(t)|\ge|z_0|-\int_0^t(\alpha(s)-\beta(s))ds>0$ tengsizlik o'rinli bo'ladi.

$(x(t),y(t))$ juftlik uchun quyidagi to'plamni qaraylik:

$$\mathbf{P}(t)=\mathbf{P}(x(t),y(t))=\{w:\beta(t)|w-x(t)|\ge\alpha(t)|w-y(t)|\}.$$

Bunda har bir $t\in[0,t^*]$ uchun $y(t)\in\mathbf{P}(t)$ munosabat bajariladi.

1-lemma. Agar, barcha $t\in\left[0,T_{G_t}\right]$ uchun $\alpha(0)>\beta(0)$, $\alpha'(t)\beta(t)\ge\alpha(t)\beta'(t)$ tengsizliklar bajarilsa, u holda $\mathbf{P}(t)$ to'plam $\left[0,T_{G_t}\right]$ oraliqda kamayuvchi bo'ladi, ya'ni har bir $t_1,t_2\in\left[0,T_{G_t}\right]$ lar uchun $t_1<t_2$ bo'lganda $\mathbf{P}(t_1)\supset\mathbf{P}(t_2)$ o'rinli bo'ladi.

8-teorema. 7-teorema va 1-lemmaning shartlari bajarilsin. Agar $M\cap\mathbf{P}(x_0,y_0)=\varnothing$ bo'lsa, u holda G_t-chegaralanishlarga ega "Qutilish chizig'i" o'yinida Π_{G_t}-strategiya quvlovchi uchun yutuqli bo'ladi.

9-teorema. Agar 7-teoremaning shartlari bajarilsa, u holda $v^*(t)=-\beta(t)\xi_0$ strategiya G_t-chegaralanishlarga ega "Qutilish chizig'i" o'yinida qochuvchi uchun yutuqli bo'ladi.

Endi o'yinchilarning harakat dinamikasi

$$P:\ \ddot{x}=u,\ x(0)=x_0,\ \dot{x}(0)=x_1, \tag{15}$$

$$E:\ \ddot{y}=v,\ y(0)=y_0,\ \dot{y}(0)=y_1, \tag{16}$$

ikkinchi tartibli differensial tenglamalar bilan tavsiflangan differensial o'yinni qaraymiz, bu yerda $x,y,x_0,y_0,x_1,y_1,u,v\in\mathbb{R}^n$, $n\ge 1$; x_0 va y_0- P va E o'yinchilarning boshlang'ich vaziyatlari, x_1 va y_1 lar mos ravishda ularning boshlang'ich tezlik vektorlari. O'yinning boshida $x_0\ne y_0$ va $x_1=y_1$ shartlarni talab qilamiz. O'yinchilarning boshqaruvlari $u(\cdot):[0,\infty)\to\mathbb{R}^n$ va $v(\cdot):[0,\infty)\to\mathbb{R}^n$ o'lchovli funksiyalar sifatida tanlanadi va mos ravishda

$$|u(t)|\le\rho e^{-kt}\ \text{deyarli barcha}\ t\ge 0, \tag{17}$$

$$|v(t)| \le \sigma e^{-kt} \quad \text{deyarli barcha } t \ge 0 \tag{18}$$

geometrik chegaralanishlarga (qisqacha, $G_k^- -$chegaralanish) bo‘ysunadi.

$\mathbb{U}_k^G$ $\left(\mathbb{V}_k^G\right)$ orqali (17) ((18)) ni qanoatlantiruvchi barcha $u(\cdot)$ $\left(v(\cdot)\right)$ o‘lchovli funksiyalar to‘plamini belgilaymiz.

Keyinchalik, qisqalik uchun (15)–(18) o‘yinni ikkinchi tartibli $G_k^- -$o‘yin deb ataymiz.

17-ta’rif. $\rho \ge \sigma$ uchun, $|\mathbf{u}(t,v)| = \rho e^{-kt}$ qiymatga ega

$$\mathbf{u}(t,v) = v - \phi(t,v)\zeta_0, \;\; \phi(t,v) = \langle v, \zeta_0 \rangle + \sqrt{\langle v, \zeta_0 \rangle^2 + \rho^2 e^{-2kt} - |v|^2} \tag{19}$$

funksiyaga quvlovchining parallel quvish strategiyasi yoki qisqacha, Π-strategiya deyiladi, bu yerda $\zeta_0 = z_0 / |z_0|$.

1-tasdiq. $\rho > \sigma$ va $h(t) = 1 + \dfrac{\sigma - \rho}{k^2 |z_0|}\left(e^{-kt} + kt - 1\right)$, $t \ge 0$ bo‘lsin. U holda $h(t) = 0$ tenglama yagona musbat ildizga ega va uni T_* orqali ifodalaymiz.

10-teorema. Agar $\rho > \sigma$ bo‘lsa, u holda (19) Π-strategiya $[0, T_*]$ intervalda P uchun yutishni kafolatlaydi.

Qochish o‘yinida qochuvchi uchun

$$v_*(t) = -\sigma e^{-kt}\zeta_0, \;\; \zeta_0 = z_0 / |z_0| \tag{20}$$

ko‘rinishdagi joiz boshqaruv funksiyani taklif qilamiz.

11-teorema. a) Agar $\rho > \sigma$ bo‘lsa, u holda (20) boshqaruv $[0, T_*)$ intervalda E uchun yutishni kafolatlaydi, bu yerda T_* kafolatlangan quvish vaqti (10-teoremaga qarang);

b) Agar $\rho \le \sigma$ bo‘lsa, u holda (20) boshqaruv $[0, +\infty)$ intervalda E uchun yutishni kafolatlaydi.

$W(x,y)$ − x nuqtadan chiquvchi P quvlovchining y nuqtadan chiquvchi E qochuvchiga nisbatan oldinroq yetib boradigan barcha w nuqtalar to‘plami bo‘lsin, ya’ni

$$W(x,y) = \left\{ w : |w - x| \ge (\rho / \sigma)\,|w - y| \right\}.$$

$\rho \ne \sigma$ bo‘lgan holda, $W(x,y)$ ning chegarasi

$$S(x,y) = \left\{ w : |w - x| = (\rho / \sigma)\,|w - y| \right\}$$

Apolloniy sferasi bilan beriladi.

2-lemma. $W_*(t, x(t), y(t)) = W(x(t), y(t)) - tx_1$ bo‘lsin. U holda $W_*(t, x(t), y(t))$ t, $t \in [0, t^*]$ bo‘yicha ichma-ich joylashishga nisbatan kamayuvchi bo‘ladi, ya’ni agar $t_1, t_2 \in [0, t^*]$ va $t_1 < t_2$ bo‘lsa, u holda $W_*(t_2, x(t_2), y(t_2)) \subset W_*(t_1, x(t_1), y(t_1))$ bo‘ladi.

18-ta’rif. $W^*(x_0, y_0, T_*) = \bigcup\limits_{t=0}^{T_*} \left\{ W(x_0, y_0) + tx_1 \right\}$ to‘plamni ikkinchi tartibli $G_k^- -$ quvish o‘yinida qochuvchining yetishish sohasi deb ataymiz.

$\mathbb{R}^n$ fazoda “Qutilish chizig‘i” deb nomlangan M yopiq qism to‘plam berilgan bo‘lsin.

12-teorema. Agar $\rho > \sigma$ va $W^*(x_0, y_0, T_*) \cap M = \varnothing$ bo‘lsa, u holda (19) Π-strategiya $[0, T_*]$ intervalda P uchun yutishni kafolatlaydi.

Har bir $w \in W(x_0, y_0)$ uchun $\Theta(w, y_0) = \left\{ \theta : e^{-k\theta} + k\theta - 1 = \frac{k^2 |w - y_0|}{\sigma} \right\}$

to‘plamni va har bir $w \in W(x_0, y_0)$ va $\theta \in \Theta(w, y_0)$ uchun esa

$$W_E(w, \theta) = \{w_* : w_* = w + \theta x_1\} \tag{21}$$

to‘plamni qaraylik.

19-ta’rif. (21) to‘plamni M “Qutilish chizig‘i” ga ega ikkinchi tartibli G_k^- – o‘yinda qochuvchining yetishish sohasi deb ataymiz.

13-teorema. Agar $\rho > \sigma$ va $W_E(w, \theta) \cap M \neq \varnothing$ bo‘lsa, u holda E uchun yutuqli bo‘lgan $v_*(\cdot) \in \mathbb{V}_k^G$ boshqaruv mavjud.

XULOSA

Dissertatsiya ishi o‘yinchilarning boshqaruvlariga nostatsionar chegaralanishlar qo‘yilgan holda R. Ayzeksning “Qutilish chizig‘i” o‘yini va quvish-qochish muammolarini to‘liq o‘rganishga bag‘ishlangan.

Tadqiqotning asosiy natijalari quyidagilardan tarkib topgan:

1. Quvlovchilarning boshqaruvlariga chiziqli chegaralanish, qochuvchining boshqaruviga esa geometrik chegaralanish qo‘yilgan holdagi sodda harakatli differensial o‘yinda quvlovchilar uchun parallel quvish strategiyasi qurilgan hamda har bir quvlovchining yetishish to‘plami topilib, bu to‘plamlarning monotonlik shartlari asosida quvish masalasining yechimi va R. Ayzeks “Qutulish chizig‘i” masalasi yechimi mavjudligining yangi yetarli shartlari topilgan;
2. Boshqaruvlari eksponensial integral chegaralanishlarga ega differensial o‘yinda quvlovchi uchun parallel quvish strategiyasi qurilgan va quvish-qochish masalasi yechilishining yangi yetarli shartlari aniqlangan;
3. Boshqaruvlari nostatsionar geometrik chegaralanishlarga ega differensial o‘yinlarda quvlovchi uchun parallel quvish strategiyasi qurilgan, qochuvchi uchun esa alohida boshqaruv funksiya topilgan va quvish-qochishning yangi yetarli shartlari aniqlangan;
4. Boshqaruvlari nostatsionar geometrik chegaralanishli differensial o‘yinlarda o‘yinchilarning yetishish to‘plami qurilgan va bu to‘plamning monotonlik shartlari asosida R.Ayzeksning “Qutulish chizig‘i” masalasi to‘liq hal qilingan.

SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES PhD.03/30.12.2019.FM.05.04 FERGANA STATE UNIVERSITY

NAMANGAN STATE UNIVERSITY

HORILOV MAXMUD ABDUMALIKOVICH

DIFFERENTIAL GAMES WITH NON-STATIONARY CONSTRAINTS ON CONTROLS

01.01.02 – Differential equations and mathematical physics

ABSTRACT OF DISSERTATION OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) ON PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES

Fergana – 2023

The theme of dissertation of doctor of philosophy (PhD) on physical and mathematical sciences was registered at the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan under number B2022.4.PhD/FM194.

Dissertation has been prepared at Namangan state university.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) on the website (www.far.du) and the "ZiyoNet" information and educational portal (www.ziyonet.uz).

Scientific supervisors:	**Samatov Bahrom Tadjiahmatovich** Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor
Official opponents:	**Mamadaliyev Numanjon** Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor
	Ibaydullaev Tulanboy Tursunboevich Candidate of Physical and Mathematical Sciences, Docent
Leading organization:	V.I.Romanovsky Institute of Mathematics

Defense will take place "11" 01 2024 at 11:00 at the meeting of Scientific Council number PhD.03/30.12.2019.FM.05.04 at Fergana State University (Address: Murabbiylar str. 19, Fergana, Uzbekistan, 150100, Phone: (+99873) 244-44-02, fax: (+99873) 244-44-93, e-mail: fardu_info@umail.uz).

Dissertation is possible to review in Information-resource centre at Fergana State University (is registered №322). (Address: Murabbiylar str. 19, Fergana, Uzbekistan, 150100, Phone: (+99873) 244-44-94).

Abstract of dissertation sent out on "27" 12 2023 year.
(Mailing report No. 5 on "27" 12 2023 year).

A.K.Urinov
Chairman of Scientific Council on award of scientific degrees, D.Ph.M.S., Professor

I.U.Khaydarov
Scientific Secretary of Scientific Council on award of scientific degrees, C.Ph.M.S., Dotsent

E.T.Karimov
Chairman of Scientific Seminar under Scientific Council on award of scientific degrees, D.Ph.M.S., Professor

INTRODUCTION (abstract of the PhD thesis)

Actuality and demand of the theme of dissertation. The optimization problems of time, resource, cost, quality and capacity are taking one of the leading roles in solving numerous applied and theoretical issues arising due to multitudinous scientific-practical researches, which are being conducted around the world. Such problems on a global scale involve constructing mathematical models of control processes and determining optimal solutions of the problems. In this regard, researching on conflict-controlled processes being the main object of the theory of differential games, determining the existence of new sufficient conditions for pursuit-evasion problems with non-stationary constraints on controls, and description of the attainability set of the considered objects are considered to have great significance.

Worldwide, researches oriented towards exploring differential game problems with non-stationary constraint on controls are being conducted. In order to improve the efficiency of the results of classical problems of differential games, special attention is being paid to the study of multi-player differential game problems with constraints of different forms on controls, constructing optimal strategies for pursuit-evasion problems in differential games with constraints of non-stationary or various forms on controls, finding new sufficient conditions, describing the attainability set of players, including solving the “Life-line” game of Isaacs.

In our country, being performed comprehensive measures in terms of paying attention to momentous areas with scientific and practical applications of fundamental sciences, certain results are being achieved. The main tasks[1] have been defined with regard to the priority directions of, such as, “algebra and its applications, differential equations and their applications, nonlinear systems, mathematical modeling of dynamical systems and their applications, stochastic analysis, medical-biological informatics, mathematics of calculus”. In the implementation of these tasks, including for the purpose of developing the theories of differential equations, dynamical systems and differential games, constructing optimal strategies for pursuit-evasion problems in differential games with constraints of non-stationary or various forms on controls is taking a crucial role.

The subject and object of research of this dissertation are in line with tasks identified in the Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan UP-4947 of February 7, 2017 “On the strategy of action for the further development of the Republic of Uzbekistan”, UP-2789 dated February 17, 2017 “On measures to further improvement of the activities of the Academy of Sciences, organization, management and financing of research activities, PP-3682 from April 27, 2018 “On measures to further improve the system of practical implementation of innovative ideas, technologies and projects” and PP-4387 from July 9, 2019

[1] Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated July 9, 2019 №PQ-4387 “On state support for the further development of mathematics education and subjects, as well as measures to fundamentally improve the activities of the Institute of Mathematics named after V.I. Romanovsky of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan”.

“On measures to further development of mathematical education and science, and also root improvement of the activity of the Uzbekistan Academy of Sciences V.I.Romanovsky Institute of Mathematics”, as well as in other regulations related to basic science.

Connection of research to priority directions of development of science and technologies of the Republic. This research was conducted in connection with the priority areas of science and technology of the Republic of Uzbekistan IV, “Mathematics, Mechanics and Computer Science”.

